TILSHUNOSLIKDA "STEREOTIP" TUSHUNCHASINING YORITILISHI

Ibragimova Xosiyatxon Ibodulloxon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo`nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **Samadova Visola Baxtiyor qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti

Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o`qituvchisi

visolasamadova5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslikda stereotip tushunchasi va uning asosiy elementlari yoki hosil qiluvchi tushuncha: inson, tilshunoslik va madaniyat. Tilshunoslikda stereotip tushunchasi haqida qimmat ma'lumotlar tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: til, stereotip ,og‘zaki nutq, yozma nutq, madaniyat, mentalitet, Uolter Lippmann, nemis mentaliteti.

Аннотация: в данной статье анализируется понятие стереотипа в лингвистике и его основные элементы или смыслообразующие концепты: человек, язык и культура. Рассматриваются ценные сведения и данные о понятии стереотипа в языкознании.

Ключевые слова: язык, стереотип, устная речь, письменная речь, культура, менталитет, Уолтер Липпман, немецкий менталитет.

Abstract: "This paper explores the notion of stereotypes within the linguistic framework, detailing its primary elements and underlying constructs—namely, the human element, linguistics, and culture. It offers an in-depth analysis of invaluable scholarly data on linguistic stereotypes."

Keywords: language, stereotype, spoken discourse, written speech, culture, cultural mindset, Walter Lippmann, German mentality.

Kirish.

Tilshunoslikda stereotip tushunchasi muayyan madaniyat, til yoki etnik guruh a'zolarining ongida shakllangan, reallikning til birliklari (frazeologizmlar, maqollar, aforizmlar) orqali muhrlangan barqaror, sxemalashgan va umumlashtirilgan kognitiv obrazidir.

Asosiy qism

— Inson

— Til

— Madaniyat

— Stereotip

Insoniyating aloqa ommunikatsiya vositasi bu — tildir. " Insoniyat mavjud ekan til ham mavjud". Qadim - qadimdan ya'ni , ibtidoiy davrlardan buyon insonlar nimanidir vositasida muloqot qilganlar. Dastlab, turli imo - ishoralar, tovushlar, asta - sekinlik bilan esa " **verbal** " muloqot shakli hisoblanmish " **til** " ga o'tilgan. Tildan foydalanish orqali og'zaki nutq, so'ngra esa yozuv paydo bo'lish bilan " **yozma nutq** " vujudga kelgan. Og'zaki nutq tovushlar , tovushlar yordamida ifodalangan so'zlar yordamida ifodalansa, yozma nutq esa harflar, harflar yordamida yuzaga keluvchi so'zlar, gaplar, matnlar kabilar yordamida ifodalanadi. Madaniyat esa ibtidoiy davrda inson va til kabi birlamchi ahamiyatga ega bo'lmagan, asta - sekin vaqtlar o'tib madaniyat tushunchasi paydo bo'lib, taraqqiy etgan. Inson tomonidan bitiruvchi fikrlar albatta u yoki bu tushunchani yoxud qaydir bir xalqning madaniyatiga xos tushunchalar tilshunoslik, mamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin. Ushbu tilda ifodalangan madaniy tushunchalarni umumlashtirib " **stereotip**" deb atash mumkin. " **Stereotip** " o'zi nima? " Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan

emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir"

Stereotip - u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma’lumot beradi. Polsha lingvistik maktabi (Y. Bartminskiy): Stereotip – bu ma'lum bir leksik birlik ortida turuvchi va ochiq bayonotlar ketma-ketligida namoyon bo‘luvchi til va madaniyat faktidir. Masalan, xalq o‘z tilida 'ko‘cha' yoki 'ona' so‘zini qo‘llaganda, obektning o‘zini emas, o‘sha so‘z ortiga yashiringan madaniy stereotip va milliy qadriyat andazasini faollashtiradi."

Yana bir olim Walter Lippmann" **stereotip** " tushunchasini fanga kiritgan inson sifatida shunday izohlaydi: "Biz tashqi olamni ko‘rib, keyin unga ta’rif bermaymiz; aksincha, madaniyatimiz biz uchun avvaldan belgilab bergan ta'riflar (stereotiplar) orqali dunyoni ko‘ramiz va idrok etamiz. Stereotiplar — bu miyamiz devorlariga chizilgan barqaror suratlar bo‘lib, ular olamning murakkab tartibsizligidan bizni himoya qiluvchi mental qalqondir."

Stereotip termini (yunon. Stereos - qattiq, typos - iz, tamg‘a) 1922 - yilda Amerikalik sotsiolog va jurnalist Uolter Lippmann tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o‘zining dunyoga mashhur "**Public Opinion**" ("Jamoatchilik fikri") nomli kitobida ushbu tushunchani ilk bor ijtimoiy-psixologik ma’noda qo‘llagan va odamlarning ongida shakllanadigan qoliplarni "**miyamizdagi suratlar**" (pictures in our heads) deb ta’riflagan.

Uzoq vaqt davomida faqat psixologlar o‘rgangan bu tushuncha 1975-yilda amerikalik mashhur faylasuf va mantiqchi olim Hilary Putnam sharofati bilan til semantikasiga (tilshunoslikka) kirib keldi. Kashfiyot: Patnam o‘zining "The Meaning of "**Meaning**" ("Ma'noning ma'nosi") nomli ishida til birliklarining ma’nosini tushuntirish uchun ilk bor "**Lisoniy stereotip**" (Linguistic stereotype) terminini qo‘lladi. Olimning fikricha: Biz tildagi biror so‘z yoki tushunchani ishlatganimizda, ilmiy haqiqatga emas, balki til jamiyati tomonidan qabul qilingan stereotipik ma’noga suyanamiz. Masalan, bolaga "**yo‘lbars**" so‘zini o‘rgatganimizda, uning DNKsi yoki biologik turini aytmaymiz, balki "yirtqich,

sarg‘ish-mushuksimon, yo‘l-yo‘l chiziqli hayvon" degan lisoniy stereotipni (qolipni) miyasiga yuklaymiz.

Stereotip tushunchasi haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma uchun umumiy ko'rinuvchi iz yoki o'ziga xos belgisi desak xato bo'lmaydi . Huddiki aytilganidek, "Daraxt yaprog‘idan tanilar, odam — tili va zotidan" , har bir xalqning faqatgina o‘zigagina xos xususiyati bo'ladi. Masalan, umumiy jihatdan madaniyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak:

— O‘zbek xalqi o‘ziga xos mehmondo‘st, mehribon, eri yigitlari tanti, hamiyati baland, or - nomusi o`limdan qattiq.

— Qozoqlar anchayin qaysar va bir so‘zlik.

— Xitoyliklar esa anchagina takallufga boy, laganbordorlikka moyil.

— Estonlar esa tabiatan sustkashlikka moyil.

— Italyanlar ancha-muncha qiziqqon bo‘lib , sal deganda lov etib yonuvchan.

— inglizlar esa italyanlarni taomila aksi anchagina sovuqqon bo‘lib, his - tuyg‘ularga berilishi biroz qiyin.

— Turk millati esa ta'sirchan, his tuyg'uga beriluvchan.

— Rus xalqqa tavakkalchi shartaki, ochiq muloqotni yoqtiruvchi.

— Yaponlar esa anchayin xushmuomala, madaniyatli, etiket qoidalariga qat'iy amal qiluvchi.

Qayd qilingan etnomadaniy stereotiplar orasida ayniqsa, nemis stereotipi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib, aniqlik, puxtalik, o'z vaqtida bo‘lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat pog‘onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o'zining xatti-harakatlari uchun xudo oldida javob beradi. Shuning uchun ham nemislar uchun qonun muqaddas, barcha narsadan ustun bo'ladi.

Nemis madaniyatidagi "Die Gesetze ohne Ansehen der Person handhaben" (Mansabidan qat'iy nazar, qonun barcha uchun bir) lisoniy andozasini va tartibga bo‘lgan geterostereotipik (tashqi tomondan berilgan) bahoni isbotlovchi quyidagi Germaniya tarixida ro‘y bergan hodisa ham yaqqol misol bo‘la oladi.XVIII asrda Prussiya (hozirgi Germaniya) davlatini mashhur qirol Fridrix II (Buyuk Fridrix) boshqargan. Qirol Potsdam shahrida o‘zi uchun juda go‘zal, dabdabali Sanssouci (Sansusi) saroyini barpo ettiradi. U ushbu sokin saroy bog‘ida dam olishni xush ko‘rar edi.Muammo:Biroq, saroy yonboshida oddiy bir nemis dehqoniga tegishli eski shamol tegirmoni joylashgan edi. Tegirmon tinmay g‘o‘ldirab aylanar, uning shovqini qirolning sokin dam olishiga va muhim davlat ishlarini o‘ylashiga qattiq xalaqit berar edi. Qirol Fridrix II o‘z xizmatkorlarini yuborib, tegirmonchiga yerini va tegirmonini katta pulga sotishni taklif qiladi. Ammo nemis tegirmonchisi Arnold buni qat’iyan rad etadi: "Bu yer menga ota-bobomdan qolgan, uni hech qanday pulga sotmayman", deydi. G‘azablangan qirol Fridrix II uni shaxsan huzuriga chaqirtiradi va tahdid qiladi . Sen mening qirol ekanligimni unutyapsan shekilli? Agar xohlasam, sening tegirmoningni bir tiyin to‘lamasdan, askarlarim yordamida yer bilan bitta qilib tashlashga kuchim yetishini bilmaysanmi? "Ha, janobi oliylari, agar Berlinda oliy sud (Kammergericht) bo‘lmaganida, siz aytgandek qilgan bo‘lardingiz!"

O'zbek xalqi esa yuqorida ta'kidlanganidek mehribon mehmonnavoz bolajon va shu bilan bir qatorda diniy tushunchalarga keng e'tibor beruvchi, diniy tushunchalarni hurmat qiluvchi xalq hisoblanadi.

"O‘g‘lim, qayerliksan, kimning bolasisan?" — deb so‘radi ota muloyimlik bilan.Men Toshkentdan ekanligimni, yetim qolib, ko‘chalarda yurganimni aytdim. Otaning ko‘zlariga yosh keldi, chuqur bir tin olib, soqolini siladi:— Esiz, esiz... Musofirlikning noni qattiq bo‘ladi, bolam. Yetimni ranjitish — Xudoga ham xush kelmaydi, gunohi azim. Yetimning boshini silagan odamga jannat eshiklari ochiladi, deb buyurgan payg‘ambarimiz alayhissalom. Qorni ochga non berish, musofirga eshik ochish har bir mo‘min bandaning farzidir. Qani, o‘g‘lim, uyga kir, senga bir issiq choy ichiraylik, bir burda nonimizni baham ko‘raylik, — dedi. Dasturxon yozildi. Oldimga issiq non, yangi suzilgan qaymoq, mayizlar

qo‘yildi. Ota qo‘llarini duoga ochib, uzoq duo qildi, nonni ushata turib menga qaradi: Bola-jonim, Xudo xohlasa, shu uyni o‘z uyingday bil. Mening ham farzandlarim bor, bolaning azizligini, musofirchilikning og‘irligini bilaman. Biz-ku o‘tib boryapmiz, lekin sizlar — kelajaksizlar. Yetimning haqi — otash, unga xiyonat qilib bo‘lmaydi. Yeganing oldingda, yemaganing ketingda, qorningni to‘ydir, — deb boshimni siladi."

G‘afur G‘ulomning dunyoga mashhur "**Shum bola**" qissasida O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehribonlik, mehmondoshlik, bolajonlik va dinga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan cheksiz hurmat kabi lisoniy-madaniy stereotiplarni ko‘rish mumkin .

Ushbu stereotip tushunchasi har doim ham ijobiy tushuncha emas. Masalan, M. Kordullning psixologiyadan tuzgan lug'atida stereotipga shunday ta’rif berilgan. " Stereotip — ma’lum guruh yoki kategoriyadagi keskin, ko‘pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo‘lganligimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko'rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Stereotiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarning o`zlashtirgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo'ladi

Darhaqiqat stereotiplar ijobiydan salbiyga, salbiydan ijobiyga vaqtlar o'tib o'zgarishi tabiiy hol. Stereotiplar biroz chigal, ba’zida tushunarsiz ammo shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzu bo'lib, ushbu tushuncha ommaga tanitilgandan buyon ko'plab muhokama va muzokaralar markazi bo'lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak stereotip — shunchaki miyamizdagi barqaror suratlar emas, balki til va tafakkur chorrahasida shakllanadigan, muayyan xalqning dunyoqarashi, madaniy kodi va milliy qadriyat andozalarini o‘zida saqlovchi murakkab lisoniy-madaniy hodisadir. Germaniya tarixidagi Sansusi saroyi va tegirmonchi Arnold haqidagi rivoyat nemis madaniyatida qonun ustuvorligi hamda tartib-intizomning naqadar muqaddasligini ko‘rsatsa, G‘afur G‘ulomning "Shum bola" qissasidagi ota obrazi o‘zbek xalqining bolajonlik, mehmondo‘stlik va diniy bag‘rikenglik kabi yuksak insoniy fazilatlarini lisoniy stereotiplar orqali namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Lippmann W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. –427.
2. Putnam H. The Meaning of "Meaning". Philosophical Papers: Volume 2, Mind, Language and Reality. – Cambridge: Cambridge University Press, 1975. – 215–271.
3. Bartmiński J. Stereotypy mieszkają w języku. Językowe podstawy obrazu świata. – Lublin: Wydawnictwo UMCS, 2006. – 63–80.
4. Weber M. Die protestantische Ethik und der Geist des Kapitalizmu. – Tübingen: J.C.B. Mohr, 1920. – 206.
5. G‘afur G‘ulom. Shum bola. (Qissa) – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 128.
6. Cordull M. Dictionary of Psychology. (Psixologiya lug‘ati).